Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316875

учинчи, субъектлар томонидан тақдим этилган молиявий ҳисоботларда берилган ҳаққоний маълумотлар ҳамда тушунтиришлар фойдаланувчиларни тушуниши учун етарли бўладими ёки йўқлигини баҳолаши.

Умумий хулоса қилиш мумкинки, тадбиркорлик субъектларидаги мавжуд ҳисоб сиёсатини халқаро стандартлар талабларига мувофиқлаштириш, уларда молиявий ҳисоботларини тузиш ва тақдим этишнинг янги архитектурасини шакллантиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон қарори. 2020 йил 24 февраль.
2. Каримов А., Курбанбаев Ж., Жуманазаров С. – Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик /;- Т.. “Иқтисод- молия’’
3. Каримов А., Муқумов З., Тулаев М., Курбанбаев Ж., Раҳмонов Ш.– Бухгалтерия ҳисобининг ахборот тизимлари. Ўкув қўлланма. Т..‘’Иқтисод-молия’’
4. Нарбеков Д . Тўраев А . Раҳмонов Ш. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. –Т.. ‘’Иқтисод-молия.’’

KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Qo’chqarov Xabibullo
“University of Economy and Pedagogy” NOTM dotsenti
Zafarjonov Murodjon
“University of Economy and Pedagogy” NOTM talabasi

ANNOTATSIYA: *Jahonning moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda. Shuning uchun ham kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish mavzusini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so’zlar: *kichik biznes, tadbirkorlik, buhgalteriya hisobi, soliq siyosati, buhgalteriya reestri, kassa hisobotlari.*

Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta’minlashdir. Buxgalteriya hisobining vazifalari: buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risidagi to‘liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirish; samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish; moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzishdan iboratdir. Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar,

Published: 17.05.2024
Cite this article: Qo‘chqarov Xabibullo, Zafarjonov Murodjon (2024). Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316875
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir. Buxgalteriya hisobining obyektlari jamlama hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Analitik hisobni yuritish tartibi buxgalteriya hisobi subyekti tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklanadi. Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi. Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari quyidagilardir: buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish; uzluksizlik; xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi; aniqlik; hisoblash; oldindan ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik); mazmunning shakldan ustunligi; ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni korxona, muassasa va tashkilot rahbari amalga oshiradi. Pul, tovar-moddiy va boshqa boyliklarni qabul qilish va berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, korxona, muassasa va tashkilotning kredit va hisob-kitob majburiyatlari, shuningdek buxgalteriya hisobotlari va balanslari rahbar tomonidan yoki u belgilaydigan shaxslar tomonidan imzolanadi. Rahbar imzolash huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning ikkita ro‘yxatini tasdiqlaydi. Birinchi ro‘yxatga - rahbarlik vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar, ikkinchisiga - buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar kiradi. Bu shaxslarning imzosi bo‘lmagan hujjatlar xaqiqiy hisoblanmaydi. Hisobot davriga tegishli bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalari, agar ular amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar olinmagan bo‘lsa, tegishli boshlang‘ich hujjat rasmiylashtirilib, buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Boshlang‘ich hisob hujjatlarining majburiy rekvizitlari quyidagilardir: korxonaning (muassasaning) nomi; hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy; xo‘jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdor o‘lchovi (natura holida va pulda ifodalangan holida); mas’ul shaxslarning shaxsiy imzolari. Boshlang‘ich hisob hujjatlarini tuzgan hamda imzolagan shaxslar ularning o‘z vaqtida to‘g‘ri va aniq tuzilishi, shuningdek buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ularning belgilangan muddatlarda topshirilishiga javobgardirlar. Boshlang‘ich hisob hujjatlariga xo‘jalik operatsiyasi qatnashchilari tomonidan tasdiqlanmagan tuzatishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bank va kassa-pul hujjatlarida tuzatishlar va o‘chirib yozishlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Buxgalteriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlar, tasdiqlangan blankalar (shakllar)dir. Registrlar texnika vositalaridan foydalanishda olingan mashinogramma ko‘rinishidagi yozuvlar yo‘li bilan, shuningdek magnit tasmalari, disklar, disketlar va boshqa mashinalarda bajarilishi mumkin. Registrlarni shakllantirish tartibi buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi. Buxgalteriya hisobi registrlariga tasdiqlanmagan tuzatishlarning kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Buxgalteriya hisobi milliy valyuta - so‘mda yuritiladi. Buxgalteriya hisobini yuritishda maxfiylikka rioya

qilinadi. Buxgalteriya hisobi registrlarining mazmuni bilan tanishishga ma’muriyat ruxsati bilan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Birinchi darajaga, O‘zbekiston Respublikasini «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni keltirish mumkin. Ikkinchi darajaga, hozirgi vaqtda ishlab chiqilgan 23 ta standartni misol qilish mumkin. Uchinchi darajadagi mehnyoriy tartibga solish tizimiga Moliya vazirligi tasdiqlangan buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog‘liq Nizomlarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Uzdavistiqbolstat va Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan va 1995 yil 1 yanvarda amalga kiritilgan, Vazirlar Mahkamasining 1999, 2003 yillardagi qarorlari bilan tuzatishlar kiritilgan «Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish haqida Nizom» misol bo‘la oladi. To‘rtinchi darajaga esa, korxonalarda qabul qilinadigan, buxgalteriya hisobini tartibga solish bilan bog‘liq hujjatlarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning natijasida iqtisodiyotda xususiy sektor vujudga keldi va tobora mustahkamlanib bormoqda. Ma’lumki, xususiy sektorning asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashkil etadi.

Shuning uchun O‘zbekistonda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda va buning ijobiy natijalari yaqqol sezilib turibdi. Kichik biznes subyektlari o‘z xo‘jalik-iqtisodiy faoliyatini mustaqil ravishda olib boradi. Ularning ko‘pchiligining tashkiliy-huquqiy shakli biznes egalarining korxona majburiyatlari bo‘yicha to‘la javobgarligini nazarda tutadi. Faqat aksiyadorlik jamiyatlari yoki mas’uliyati cheklangan jamiyat ko‘rinishidagi korxonalarda ularning egalari iqtisodiy mas’uliyati kapitalga qo‘shilgan ulush doirasida cheklab qo‘yilgan.

Kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobi yuritilishining rasmiy tartib-qoidalari 1999 yil 23 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 87-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va 2000 yil 24 yanvarda Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan 20-sonli «Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan soddalashtirilgan tartibda hisob yuritish va hisobotlar tuzish to‘g‘risida»gi buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)da o‘z ifodasini topgan. Ma’lumki, buxgalteriya hisobining ikki jihati mavjud: moliyaviy va boshqaruv hisobi. Moliyaviy hisobning tartib-qoidalari davlat tomonidan rasmiy ravishda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular birinchi navbatda «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi +onunda va buxgalteriya hisobi milliy standartlarida ifodalangan. Moliyaviy hisobning natijalari moliyaviy hisobotlarda jamlanadi. Bu hisobotlar davlat manfaatlari ifodachisi bo‘lgan soliq organlariga taqdim etiladi va oshkora moliyaviy axborot hisoblanadi. Moliyaviy hisob ma’lumotlari korxonani boshqarish uchun juda muhim ahamiyatga ega, lekin yetarli emas. Shuning uchun ham korxonada buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob talablariga nisbatan kengroq va chuqurroq olib borilishi zaruriyati tug‘iladi. Korxonani boshqarish uchun zarur axborot bazasini ta’minlovchi buxgalteriya hisobi boshqaruv hisobi deb ataladi. Moliya vazirligi tomonidan bu takliflarning umumlashtirilishi, kichik biznes korxonalari uchun soddalashtirilgan hisoblar rejasini, boshlang‘ich hujjatlarning eng muhim turlarining tavsiya etiladigan namunalarini,

kichik korxonada buxgalteriya hisobining tashkiliy tuzilmasi va vazifalar taqsimotini, hujjatlar aylanishini namunaviy sxemasini o‘z ichiga olgan kichik korxona namunaviy hisob siyosati ishlab chiqilishi zaruriyati sezilmoqda. Shuningdek, kichik korxonalar hisob siyosatini ishlab chiqishda boshqaruv hisobi doirasidagi maslalarga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu vazifalar oqilona bajarilishi uchun tannarxni tashkil etuvchi xarajat moddalari klassifikatsiyasini belgilab olish, ustama xarajatlarni taqsimlashdagi mezonlarga, korxona budjeti o‘z ichiga oladigan jadvallar va natural-moddiy va qiymat balanslarining shakllariga nisbatan bir xil talablar qo‘yilishi ham kichik biznesda qarorlar qabul qilinishi jarayoni puxtaligini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish davlatning asosiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo’nalishlarida asosiy o’rinni egallamoqda.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuni. Toshkent, 1996 yil 30 avgust.

2.O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni. 2000 yil 26 may.

3. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yildagi «Korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida»gi Qonuni.

5. http://www.mf.uz

6. http://www.gov.uz/uzbekistan/transportation

7. http://www.gov_stat.uz

8. http://www.referat.ru/economy/management

ISHLAB CHIQARISH HAJMI SAMARASIGA KO’RA FIRMANING OPTIMAL O’LCHAMINI ANIQLASH

Qurbonov Jasurbek Pozilovich
TDIU, Andijon fakulteti, “Mutaxasislik fanlari” kafedrasi dotsenti, PhD
Qodirova Gulnoza
TDIU, Andijon fakulteti “Axborot tizimlari va texnologiyalari” yo’nalishi,2-kurs talabasi

*Annotatsiya:*Ushbu tezisda firmaning optimal hajmi uning samaradorligi, unumdorligi va rentabelligini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu dissertatsiya firma hajmi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan bo‘lib, pirovardida maksimal ishlab chiqarish samaradorligiga erishadigan optimal firma hajmini aniqlashga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, empirik tadqiqotlar o‘tkazish va statistik usullardan foydalanish orqali ushbu tadqiqot korxonalar va siyosatchilar uchun firma hajmini optimallashtirish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilishda qimmatli tushunchalar berishga intiladi.